



**QARSHI DAVLAT  
TEXNIKA UNIVERSITETI**

**2025-YIL  
14-15 MART**

**GIDROTEXNIKA QURILISHI VA GIDROENERGETIKANING  
BUGUNGI KUNDAGI MUAMMOLARI VA ULARNING  
YECHIMLARI  
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMAN  
TO‘PLAMI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**GIDROTEXNIKA QURILISHI VA  
GIDROENERGETIKANING BUGUNGI  
KUNDAGI MUAMMOLARI VA ULARNING  
YECHIMLARI**

**(Respublika ilmiy-amaliy anjumani maqolalar to’plami)**

**14-15 mart 2025 yil**

**Qarshi-2025**

“Innovatsiya, bu – kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondoshuv asosida boshlashimiz kerak”

Sh.M.Mirziyoyev

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 27 iyundagi “Yer osti suvlaridan foydalanish sohasidagi faoliyatni yanada tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 430-sonli, 2021 yil 14 iyuldagi “Qishloq xo‘jaligida suvni tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 441-sonli Qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida 2025 yil 14-15 mart kunlari Qarshi davlat texnika universiteti **“Gidrotexnika qurilishi va gidroenergetikaning bugungi kundagi muammolari va ularning yechimlari”** mavzusida Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman tashkil etilmoqda.

Mazkur konferensiya materiallari sohaga aloqador mahalliy ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy ta‘lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, tayanch doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, amaliyotchi mutaxassislar, talaba va magistrantlarning ilmiy-ommabop ishlari, ilmiy maqola va tezislari ushbu konferensiya to‘plamidan o‘rin olgan.

**Mas'ul muharrir:**

**Sarmonov N.O‘.-“Gidrotexnika inshootlari va nasos stansiyalari” kafedrasini mudiri, t.f.f.d (PhD).**

**Tahrir hay’ati:**

**A.I.Qurbonov**

**M.O.Ro‘ziyev**

**S.U.Jonqobolov**

**A.Sh.Suyunov**

**A.I.Abdurazakov**

**Z.X.Sherboyev**

**T.G.Abdiyev**

**S.R.Mamarasulov**

**Sh.Sh.Nuriddinov**

**N.E.Qodirov**

**I.I.Umarov**

**T.Z.Xolmo‘minov**

**B.G‘.Aralov**

**J.Y.Shonazarov**

**J.T.Fayzullayev**

**A.B.Vafoyeva**

**M.Q.Jomurodova**

**N.Shaxobova**

**To‘plamga kiritilgan ma'lumotlarning to‘g‘riligiga maqola mualliflar mas'uldir.**

Manzil: Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahri Xonobod shox ko‘chasi, 19-uy  
Telefon: (375) 224-19-49, +99899 581 17 27, +99899 120 65 64

“Агросаноат мажмуаси учун фан, таълим ва инновация, муаммолар ва истиқболлар” мавзусидаги Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. – Тошкент, 2019. – Б. 249-252.

2. Маматов Ф.М., Равшанов Ҳ.А., Мирзаев Б.С., Худояров Б.М., Чўянов Д.Ш. Кўпфункционали тупроққа ишлов берадиган комбинациялашган агрегат// “Қишлоқ хўжалигида техника ва технологиялар сервисини ривожлантириш истиқболлари” мавзусидаги Республика илмий-техник конференция илмий мақолалар тўплами. – Қарши, 2010. – Б. 271.

3. Маматов Ф.М., Равшанов Ҳ.А. Эрозияга қарши тупроққа ишлов бериш технологиялари ва техник воситалари/ Рисола. – Қарши: “Насаф”, 2006. – 60 б.

4. Маматов Ф.М. Қишлоқ хўжалик машиналари/ Дарслик. – Тошкент: “Фан”, 2007. – 345 б.

5. Шоумарова М.Ш., Абдуллаев Т.А. Қишлоқ хўжалик машиналари/ Дарслик. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 2002. – 424 б.

## **QISHLOQ XO‘JALIGIGA MO‘LJALLANGAN YERLARDA MONITORING ISHLARINI AMALGA OSHIRISH**

**J. Ataulayev – Qarshi Davlat texnika universiteti o‘qituvchisi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yurtimizda qishloq xo‘jaligi yerlarini monitoring qilishni tartiblari maqsad va vazifalari keltirib o‘tilgan

**Kalit so‘zlar:** qishloq xo‘jaligi ekinlari, davriy monitoring, joriy monitoring, tezkor monitoring.

**Kirish.** Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar va ekin maydonlarida monitoring ishlarini amalga oshirish tartibi qo‘yidagicha amalga oshiriladi;

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar va ekin maydonlari monitoringini O‘zbekiston Respublikasi Milliy geografik axborot tizimidagi davlat yer kadastrining qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar bo‘yicha yer turlari, maydoni, yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar to‘g‘risidagi ma‘lumotlari asosida amalga oshirish;

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar va ekin maydonlari monitoringini davriy, joriy va tezkor monitoring shakllarida amalga oshirish;

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar va ekin maydonlari monitoringi davomida olingan ma‘lumotlardan qishloq xo‘jaligi yerlari holati va ulardan foydalanish to‘g‘risidagi hisobotlarni tayyorlashda foydalanish;

Yerlarning holatidagi o‘zgarishlarni aniqlash, ularni baholash, prognozlash, salbiy jarayonlar oqibatlarini oldini olish va bartaraf etish, tavsiyalar ishlab chiqish, yerni masofadan turib zondlashning yangi usullarini, yer monitoringining texnik vositalari va texnologiyalarini takomillashtirish va joriy etish.

qishloq xo'jaligi ekinlari monitoring ekinlarni joylashtirish ko'rsatkichlari asosida qishloq xo'jaligi ekinlari ekilgan maydonlarni o'lchash, shuningdek, ekin maydonlarida o'tkaziladigan yerga ishlov berish bilan bog'liq agrotexnik tadbirlarning o'z muddatlarida bajarilishi yuzasidan kuzatuv olib borish mulkchilik shaklidan qat'i nazar, yer fondining barcha toifalaridagi qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarda, jumladan, haydaladigan ekin yerlari, ko'p yillik daraxtzorlar, bo'z yerlar, pichanzor va yaylovlar, shuningdek, ularga xizmat qiluvchi boshqa yer turlarining (ariq, zovur, yo'l va boshqalar) holati bo'yicha kuzatuv tizimi (fuqarolarga yakka tartibda uy-joy qurish va uy-joyni obodonlashtirish uchun berilgan yer uchastkalari bundan mustasno), yer fondining barcha toifalaridagi qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun berilgan yoki ushbu maqsadlarga mo'ljallangan yerlar (sug'oriladigan va sug'orilmaydigan yerlar, haydaladigan yerlar, pichanzorlar, yaylovlar, ko'p yillik mevali dov-daraxtlar egallagan yerlar).

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar va ekin maydonlarida monitoring ishlari davriyligi bo'yicha quyidagicha amalga oshiriladi:

***rasmda uchuvchisiz uchish qurilmalari yordamida qishloq xo'jaligi***



***yerlarining monitoring qilish jarayoni***

davriy monitoring — qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni turlari va maydoni bo'yicha har besh yilda xatlovdan o'tkazib borish;

joriy monitoring — qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan foydalanish holati yuzasidan har yili monitoringni amalga oshirish;

tezkor monitoring — qishloq xo'jaligi ekinlarining ekilishi va ularda yerga ishlov berish bilan bog'liq agrotexnik tadbirlarning o'tkazilishi yuzasidan kunlik monitoringni amalga oshirish.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarda davriy monitoring ishlari quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlarining buzilishi oqibatida holati yomonlashgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan sug'oriladigan yerlarning maydoni va holatini aniqlash;

fermer xo'jaliklari va boshqa qishloq xo'jaligi tashkilotlariga berilmagan, bo'sh turgan va qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning maydoni va holatini aniqlash;

foydalanishdan chiqib ketgan va qayta foydalanishga kiritilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning maydoni va holatini aniqlash;

qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar to'g'risida axborot bazasini yaratish.

Davriy monitoringdan oldin tayyorgarlik ishlari jarayonida quyidagilar o'rganiladi:

tumanning yoki hududning ixtisoslashuvi;

qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan foydalanish va yerdan foydalanuvchilar to'g'risidagi ma'lumotlar;

sug'oriladigan, shartli sug'oriladigan va lalmi ekin yerlarining maydoni va holati;

bog'zor, tokzor, tutzor va boshqa mevali ko'p yillik daraxtzorlar, shuningdek, ko'chatzorlarning maydonlari va holati;

bo'z yerlar, pichanzor va yaylovlardan foydalanish holati;

qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning meliorativ holati o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar, meliorativ tadbirlarni o'tkazish holatlari va ushbu yerlarning suv bilan ta'minlanganligi;

fermer xo'jaliklari va boshqa qishloq xo'jaligi tashkilotlariga berilmagan, bo'sh turgan va qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar maydoni va holati;

qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan foydalanish yuzasidan o'tgan davrdagi monitoring natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar va ekin maydonlarida monitoring ishlarini amalga oshirishda quyidagi kartografik materiallar asos bo'ladi:

sug'oriladigan va lalmi zonalar uchun — 1:10000, 1:25000 masshtabdagi, kichik yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilar uchun 1:5000, 1:2000 masshtabdagi;

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan foydalanish holati yuzasidan joriy monitoring quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

foydalanishda bo'lgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan maqsadiga ko'ra samarali va oqilona foydalanishni ta'minlash;

irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlarining buzilishi oqibatida holati yomonlashgan va qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan sug'oriladigan yerlarning holatini yaxshilash choralarini ko'rish;

cho‘l zonalari, tog‘ va tog‘oldi hududlar uchun — 1:25000, 1:50000, zaruratga ko‘ra 1:100000 masshtabdagi kartografik materiallar.



## ***2- rasmda Google Earth Pro dasturida qishloq xo‘jaligi yer maydonlarining kurinishi***

foydalanishdan chiqib ketgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarni foydalanishga kiritish choralarini belgilash;

fermer xo‘jaliklari va boshqa qishloq xo‘jaligi tashkilotlariga berilmagan, bo‘sh turgan va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarni ochiq elektron tanlovga qo‘yish bo‘yicha takliflar ishlab chiqib, mahalliy hokimiyat organiga taqdim etish choralarini ko‘rish. [3]

Joriy monitoring bo‘yicha dala kuzatuv ishlari davrida yer egalari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilarning yer uchastkalari chegaralarida sodir bo‘lgan o‘zgarishlar kartografik materiallarda qayd etiladi.

Qisqacha qilib aytganda yer monitoringi - yerlarda nazorat utkazish, yerlarni ximoya qilish va yerlardan samarali foydalanish uchun umumiy kuzatuv ishlarini amalga oshiruvchi tadbir xisoblanadi. Yer monitoringini utkazish, yerlarni rekultivatsiya qilish tartibi va nazorat utkazish turlari va usullarini yagoni tizim asosida, davlat tomonidan tasdiqlangandan keyin amalga oshiriladi.

**Xulosa taklif va tavsiyalar.** Qishloq xo‘jaligi yerlari manitoringini yuritish natijasida qo‘yidagilarga erishiladi.

-Yoppasiga har xil asossiz sabablarga ko‘ra qishloq xo‘jaligi yerlari maydoni hajmi qisqarishining oldi olinadi;

- Yerlarni tabaqalashtirilgan holda holda foydalanish, ya’ni qishloq xo‘jaligi ekinlarni to‘g‘ri joylashtirish imkoniyati yaratiladi;

-tuproq unumdorligini pasaytiruvchi omillarni aniqlash, ularning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarini belgilashda muhim asos sifatida xizmat qiladi.

-raqamli iqtisodiyot sharoitida yer manitoringini ma’lumotlari asosida respublika qishloq xo‘jaligi yerlarini boshqarish imkoniyatini beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Davlat yer kadastrini to'g'risida" gi qonuni. 1998 yil 28 avgust.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-yanvardagi 22-sonli Qarori Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarda monitoring ishlarini amalga oshirish, yerlarni muhofaza qilish va yer tuzish faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida.
3. Raxmonov Q.R. Yer monitoringi asoslari. O'quv qullanma. TIMI, Toshkent, 2008.
4. Raxmonov Q.R., Bobojonov A.R, Gofirov A.J. Yer kadastrini. Darslik. Toshkent TIMI, 2008.
5. O'zbekiston Respublikasining «Yer kodeksi», T., «Adolat», 1998 y.

### Internet saytlari

1. <http://www.biznes-daily.uz/ru/birjaexpert/61219>
2. <https://www.gazeta.uz/uz/2017/12/10/qishloq-xujaligi>

UDK: 635.652:631.5

### FASOL NAV VA TIZMALARINING VEGITATSIYA DAVRI DAVOMIYLIGI

Jo'raev Sirojiddin Turdiqulovich biologiya  
fanlari doktori, professor.

Toshkent davlat agrar universiteti.

Jumanova Mahliyo Boboqulovna

Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti  
kichik ilmiy xodim.

**Annotatsiya:** Maqolada tadqiqot davomida yangi turdagi noan'anaviy dukkakli ekin fasol nav va tizmalarining o'suv davri yillar kesimida sug'oriladigan yerlarda ertapishar tizmalar tanlab olindi.

**Kalit so'zlar:** nav, tizma, urug', vegetatsiya davri, fenologiya, hosildorlig.

**Аннотация:** В статье в ходе исследований были отобраны ранневесенние гребни на орошаемых землях в период вегетации новых видов нетрадиционных сортов бобовой фасоли и гребней.

**Ключевые слова:** сорт, гряда, семена, вегетационный период, фенология, продуктивность.

**Abstract:** In the article, during the research, early spring ridges were selected on irrigated lands during the growing season of new types of non-traditional varieties of legume beans and ridges.

**Keywords:** variety, ridge, seeds, growing season, phenology, productivity.

**Kirish:** Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab hukumatimiz aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini to'liq qondirish bo'yicha kompleks

## MUNDARIJA

### YALPI YIG'ILISH MAQOLALARI

№	F.I.Sh	Maqola mavzusi
1	Z.M.Muqimov	Kirish so'zi.
2	R.Qarshiyev	Respublikamiz suv xo'jaligida amalga oshirilayotgan ma'muriy islohotlar
3	F.Siddiqov	Viloyatda suvdan foydalanishning bugungi holati va istiqbollari, gidrotexnika inshootlarining bugungi kundagi holati
4	I.Qurbonov	Qarshi magistral kanali tizimidagi sug'orish tarmoqlaridan foydalanish tizimi, kanallarning foydali ish koeffitsientini oshirish yo'llari
5	M.R.Bakiyev	Gidrotexnika inshootlari xavfsizligining bugungi kundagi holati
6	S.S.Eshev	Deformatsiyalanadigan kanallarning yuvilish jarayonlarini baholash.
7	M.E.Shukurova	Роль математические моделирование процесса неустановившейся фильтрации грунтовых вод
8	R.Xo'jaqulov, F.Tursunov	Sug'orish nasos stansiyalari kaskadlarining ishonchliligini oshirish
9	M.Q.Sodiqov	Sanoat korxonalarini piroliz jarayoni ikkilamchi xom ashyosi asosidagi sintezlar.
10	A.Shoymuradov	Qashqadaryo viloyatida sug'oriladigan maydonlarda qattiq bug'doy yetishtirish agrotexnologiyasini ishlab chiqish.

### SHO'BALAR FAOLIYATI

<b>I-SHO'BA. GIDROTEXNIKA INSHOOTLARI, NASOS STANSIYALARI VA GIDROENERGETIKANING BUGUNGI KUNDAGI HOLATI.</b>		
<i>Sho'ba raisi: t.f.f.d (PhD) N.Sarmonov. Ilmiy kotib: Z.Sherboyev</i>		
1	<b>C.C.Эшев, Ф.Ф.Бобомуродов, Р.Усмонов, У.Юлдошева</b> Қарши Давлат техника университети. установление предельной глубины размыва и угла устойчивого откоса для различных грунтов.	6
2	<b>G'ayimnazarov Israil Xoliqovich PhD, t.f.f.d. dotsent</b> Qarshi Davlat texnika universiteti. Gryad parametrlari hisobining tahlili.	9
3	<b>Berdiyev Shavkat Jo'rayevich t.f.n. dotsent,</b> Qarshi davlat texnika universiteti. Daryo o'zani va ko'llarda suv chuqurliklarini o'lchash va chuqurlik o'lchash ma'lumotlarini qayta ishlash.	13
4	<b>Mamarasulov Sobir Raxmonqul o'g'li, Hakimjonov Sardor Azamat o'g'li</b> Qarshi davlat texnika universiteti. Kasbi suv yetkazib berish xizmati dm ga qarashli fazli-1 va paxtakor kanallarini birlashtiruvchi suv o'tkazuvchi inshoot (akveduk)ni vegetatsiya davrida ishlash sharoiti.	20
5	<b>Lutfullayev Abduvali Abdunabiyevich</b> Qarshi davlat texnika universiteti TSNQ bo'limi boshlig'i Gidroenergetikaning bugungi kundagi muammolari va ularning yechimlari.	23
6	<b>Ergashev Toxir Nematovich</b> Qarshi davlat texnika universiteti, assistenti	26

30	<b>Norov Ixom Chori o'g'li, Amanova Maxfurat Eshmurodovna.</b> Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot institute. Kunjut (sesamum indicum.l) nav va namunalarning don hosildorlik ko'rsatkichiga 1000 dona don vaznini ta'siri.	562
31	<b>Muazzamov Navro'z Faxriddin o'g'li.</b> Qarshi davlat texnika universiteti. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar va ekin maydonlarida monitoring ishlarini amalga oshirish.	566
32	<b>R. Matqosimova.</b> Andijon davlat texnika instituti. Paxta tozalash zavodiga kerakli xom ashyo bazasini tahlil qilish.	571
33	<b>Rasulov Ne'mat Shokir o'g'li.</b> Qarshi davlat texnika universiteti. Yerni masofadan zondlash ma'lumotlari asosida xaritalash metodologiyasini takomillashtirish.	575
34	<b>Ataullayev J.R.</b> Qarshi davlat texnika universiteti. Geodezik usullarda qishloq xo'jaligi yerlarining chegaralarini aniqlash.	580
35	<b>Б.В.Хушвақтов, С.Ф.Суюнов, Ш.Н.Барлибаев.</b> ҚХМИТИ. Комбинациялашган машина ротацион иш органининг диаметрини унинг иш кўрсаткичларига таъсирини ўрганиш.	588
36	<b>To'xtaqo'ziyev Abdusalim, Olimov Hamid Haydarovich.</b> ҚХМИТИ, BuxDTU. G'oz bostirib sug'oriladigan hududlarda ko'ndalang pollarni hosil qilish va buzishni mexanizatsiyalash.	592
37	<b>Qodirov Isomiddin Eshmo'minovich, Urinov Jamol Chorshanbiyevich, Kemal Beyhan.</b> Qarshi davlat texnika universiteti. Qashqadaryo viloyatining koson va muborak tumanlarida ichimlik suvi inshootlarini modernizatsiya qilish va rekonstruksiya qilish.	596
38	<b>Mamashayeva Shoxsanam Rovshan qizi, Meyliyev Akmal Xushvaqtovich.</b> Janubiy dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti. Afrika tarig'i o'simligining biometrik ko'rsatkichlari.	602
39	<b>Келдиёров Рафиқ Нормуродович, Рахимов Рахмон Тулқин ўғли.</b> Qarshi davlat texnika universiteti. Fўza qator oralariga ishlov bеришнинг аҳамияти ва унга қўйиладиган асосий агротехник талаблар.	605
40	<b>Келдиёров Рафиқ Нормуродович, Абдураимов Жасур Жалол ўғли.</b> Қарши давлат техника университети. Кузги донли экинлардан бўшаган тупроқларнинг хусусиятлари.	608
41	<b>J.Ataullayev.</b> Qarshi Davlat texnika unversiteti. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarda monitoring ishlarini amalga oshirish.	612
42	<b>Jo'raev Sirojiddin Turdiqulovich, Jumanova Mahliyo Boboqulovna.</b> Toshkent davlat agrar universiteti. Fasol nav va tizmalarining vegetatsiya davri davomiyligi.	616
43	<b>Бахрамова Нилуфар Назаровна, Жуманова Махлиё Бобоқуловна, Равшанова Феруза Аллаёровна.</b> Жанубий дехқончилик илмий тадқиқот институти. Рыжик навларини экиш меъёрлари ва қимматли хўжалик белгиларига боғлиқлиги.	620
44	<b>Jalg'asbaev Arzubay Biysenbay o'g'li.</b> Жанубий дехқончилик илмий тадқиқот институти. Yumshoq bug'doyning roqobatli nav sinash ko'chatzori genotiplarida o'suv davri davomiyligi.	623
45	<b>Ismoilov Abbas Akmal o'g'li.</b> Janubiy dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti. Raqobatli nav sinash ko'chatzorida yasmiqning o'suv davri davomiyligi.	628
46	<b>Safarov Fayzali Saminulovich, Ergashev Hasan Baxtiyor o'gli.</b>	633